

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– iyul holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **12,5 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi **34,7 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalar nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **4,4 taga oshgan.**


2018 yilning yanvar-iyul oyida Jizzax viloyatida 1796 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 379 taga ko'pdir.

Shuningdek, faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 44,5 % ga kamaygan hamda ularning soni 412 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 1503 ta (12,5 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 13439 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Jizzax shahrida (30,5 %), Sharof Rashidov (16,7%), Zomin (8,3 %) va G'allaorol (7,9 %) tumanlarida kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), birlikda




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 avgust holatiga)


	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Jizzax viloyatida	14234	100,0	13493	100,0
Jizzax sh.	4347	30,5	4118	30,5
tumanlar:				
Arnasoy	415	2,9	415	3,1
Baxmal	838	5,9	776	5,8
G'allaorol	1073	7,5	1069	7,9
Sharof Rashidov	2312	16,2	2252	16,7
Do'stlik	588	4,1	538	4,0
Zomin	1139	8,0	1114	8,3
Zarbdor	656	4,6	629	4,7
Zafarobod	409	2,9	345	2,6
Mirzacho'l	521	3,7	445	3,3
Paxtakor	600	4,2	542	4,0
Forish	1019	7,2	956	7,1
Yangiobod	317	2,3	294	2,0

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 18,6 % savdoda, 15,3 % sanoatda, 15,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 9,4 % qurilishda, 6,8 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,6 % tashish va saqlash, 1,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,2 % axborot va aloqa va 28,7 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi




2018 yil yanvar-iyul holatiga 1796 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 26,7 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Jizzax shahrida (410 ta), Sharof Rashidov (292 ta), Forish (156 ta) va Baxmal tumanlarida (154 ta) tashkil etilgan. Eng kam Yangiobod (37 ta), Mirzacho'l (51 ta) hamda Arnasoy (65 ta) tumanarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (7045 ta), sanoatda (6561 ta), qurilishda (3871 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (3630 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (750 ta), axborot va aloqada (754 ta) hamda tashish va saqlashda (1160 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-iyul holatiga.	2018 yil yanvar-iyul holatiga.
Jami:	1417	1796
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	443	411
Sanoat	285	309
Qurilish	112	173
Savdo	180	262
Tashish va saqlash	42	38
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	117	98
Axborot va aloqa	16	11
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	23	15
Boshqa turlari	199	479

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 avgust holatiga 10523 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, shundan xususiy korxonalar – 3768 ta, oilaviy korxonalar – 423 ta, mas`uliyati cheklangan jamiyatlar – 5987 ta va boshqalar 326 tani tashkil etadi.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 avgust holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 100 tani tashkil etdi. O`tgan yilning shu davriga nisbatan 28 taga yoki 38,9 % ga o`sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalardan 79 tasi qo`shma korxonalar, 21 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yillar davomida o'sish, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Jizzax shahar 48 ta (48,0 %), Zomin 11 ta (11,0 %) va Sharof Rashidov tumanlarida 10 ta (10,0 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Zafarobod, Mirzacho'l va Yangiobod 1 ta (1,0 %), Arnasoy, Baxmal va Zarbdor 2 ta (2,0 %) va Paxtakor 4 ta (4,0 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 avgust holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 61 ta (61,0 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 14 ta (14,0 %), savdoda 12 ta (12,0 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 5 ta (5,0 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda va axborot va aloqada 1 ta (1,0 %), tashish va saqlashda va qurilishda 3 ta (3,0 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-iyul oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalar soni 26 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 22 taga ko'paygan.


Bunda, Turkiya Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 10 ta, Rossiya Federatsiyasi – 9 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 7 ta, Afg'oniston Islom Respublikasi - 2 ta, Koreya Xalq-Demokratik Respublikasi - 1 ta, Amerika Qo'shma Shtatlari— 1 ta, Pokiston Islom Respublikasi—1 ta, Turkmaniston Respublikasi –1 ta va Saudiya Arabiston Qirolligi-1 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-iyul holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 9 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 8 ta, savdoda 5 ta, qurilish va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 1 ta va boshqa faoliyat turlarida 2 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 avgust holatiga Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 10482 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 avgust holatiga qaraganda 11,4 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 3431 tasi (32,7 %) Jizzax shahriga, 1936 tasi (18,5 %) Sharof Rashidov, 810 tasi (7,7 %) G'allaorol hamda 800 tasi (7,6 %) Zomin tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 10482 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2500 tasi (23,9 %) – savdoda, 2044 tasi (19,5 %) - sanoatda, 1985 tasi (18,9 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1259 tasi (12,0 %) - qurilishda, 909 tasi (8,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 483 tasi (4,6 %) - tashish va saqlashda, 144 tasi (1,4 %) - axborot va aloqa sohasida, 121 tasi (1,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 1037 tasi (9,8 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va sanoat faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-iyul holatiga 1433 dan oshiq kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 12,1 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Jizzax shahrida (342 ta), Sharof Rashidov (237 ta), Forish (135 ta) va Baxmal tumanlarida (128 ta) tashkil etilgan. Eng kam Yangiobod (25 ta), Mirzacho'l (39 ta) hamda Zafarobod (46 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (408 ta), sanoatda (308 ta), savdoda (262 ta) va qurilishda (173 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (11 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (15 ta) hamda tashish va saqlashda (38 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 avgust holatiga 458 tani tashkil etib, ulardan 423 tasi yoki 92,4 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **28,3** % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 40,0 % yoki 169 tasi sanoat, 27,9 % yoki 118 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 16,3 % yoki 69 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 8,7 % yoki 37 tasi savdo, 0,9 % yoki 4 tasi qurilish, 0,7 % yoki 3 tasi axborot va aloqa hamda 5,5 % yoki 23 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Jizzax viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan

Nashr uchun mas'ul:
J.Yo'ldoshev
(0371) 230-83-65,66